

Bu topshiriqqa muayyan vaqt (10-15 daqiqa) ajratish va uni musobaqa tarzida o'tkazish mumkin. Zanjirlari eng uzun va tartibli bo'lgan juftlik g'olib hisoblanadi.

5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

- Texnologiya darslarida qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
- Xavfsizlik qoidalari nima uchun zarur?
- Xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?

Kutilayotgan natijalar:

- texnologiya darslarida xavfsizlik texnikasi haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- texnologiya darslarida asboblari va materiallar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni biladilar;
- xavfsizlik texnikasiga rioya qilish va qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanishning muhimligini tushunadilar.

3-DARS. QURT (IPAK QURTI)

Dars maqsadlari:

- qog'ozdan shakllarni kesish, qirqib olish, bukish va yopishtirish texnikasi haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- buyumlar yasash uchun kesish va yopishtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- qaychi va yelim bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanish mahoratini oshirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi bugun darsda o'quvchilar rangli qog'ozdan qurt yasashlari kerakligini tushuntiradi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

- Qog'oz qachon va qayerda ixtiro qilinganini bilasizmi?
- Ushbu materialning ahamiyati nimada?
- Nima uchun qog'ozdan tejab foydalanish kerak?

O'qituvchi o'quvchilarga qaychi va qog'oz bilan ishlash qoidalarini eslatadi. O'qituvchiga qog'ozning qimmatli material ekanligini va u daraxtlardan ishlab chiqarilishini o'quvchilarga tushuntirib o'tish tavsiya etiladi. Qog'ozni tejamli ishlatish o'rmonlarni kesilishdan saqlashga yordam beradi. O'qituvchi qog'ozdan qanday qilib tejab foydalanishni ko'rsatadi.

Savollar:

- Qaychi va qog'oz bilan ishlashning qanday qoidalarini bilasiz?
- Qaychini qanday saqlash kerak?
- Qog'ozdan qanday foydalanish kerak?

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi standart tuzilishga ko'ra o'tkaziladi.

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video ko'rsatma berilgan bo'lib, ular shu asosida ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Shundan so'ng o'quvchilar rangli qog'oz, qaychi va yelim bilan ishlashga kirishadilar. Avvalo, o'quvchilarga turli rangdagi qog'oz varaqlaridan eni 1,5-2 santimetrli (zarur bo'lsa chizg'ichdan foydalanib) 8-10 ta tasma qirqib olish topshiriladi. Keyin bu tasmalardan halqalar yasaladi, so'ngra alohida yashil rangdagi varaqda halqalarni bir-biriga yopishtirish orqali qurt shakllantiriladi.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarurat tug'ilganda, o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

- Bugun darsda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qildik?
- Bugun qanday buyumni yasadik?
- Qurtlar haqida nimalarni bilasiz: ular qayerda yashaydi va nima bilan oziqlanadi?

Kutilayotgan natijalar:

- texnologiya darslarida xavfsizlik texnikasi haqida tasavvurga ega bo'lish;
- texnologiya darslarida asbob va materiallar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qila olish;
- xavfsizlik texnikasiga rioya qilish va qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanishning muhimligini tushunish.